

**BUYUK MUHADDIS ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ISMOIL
BUXORIYNING “AL-ADAB AL-MUFRAD” (“ODOB DURDONALARI”)
ASARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI**

Karimova Mukaddas Otajonovna

FarDU dotsenti, p.f.n.

muqaddaskarimova58@gmail.com

Axmedova Feruzaxon Alisherovna

FarDU 2-bosqich magistranti

feruzaxonaxmedova25@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat” tushunchasi, buyuk muhaddis bobomiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning “Al-adab al-Mufrad” (“Odob durdonalari”) asari hayotimizda juda zarur bo‘ladigan odob-axloqqa doir hadislar to‘plami ekanligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy madaniyat, Buxoriy, Al-adab al-Mufrad, odob-axloq.

ANNOTATION

In this article, the concept of “mass culture” and the opinion that our great grandfather Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail Bukhari’s work “Al-Adab al-Mufrad” (“Masterpieces of Manners”) is a collection of hadiths about manners that are very necessary in our lives.

Keywords: mass culture, Bukhari, Al-adab al-Mufrad, manners.

АННОТАЦИЯ

В данной статье понятие «массовая культура» и мнение о том, что произведение нашего прадеда Абу Абдуллы Мухаммада ибн Исмаила Бухари «Аль-адаб аль-Муфрад» («Шедевры нравов») представляет собой сборник хадисов о нравах, которые очень нужны в нашей жизни.

Ключевые слова: массовая культура, Бухари, Аль-адаб аль-Муфрад, нравы.

KIRISH

Hozirgi davrda jahonda globallashuv jarayonlari kundalik hayotimizga tez sur’atlar bilan hamma sohalarida kirib kelishi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotimizda davlatlar, mintaqalararo bog‘lanishimizda ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘lsada, lekin ikkinchi tomondan bu jarayon hozirgi sharoitda mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning o‘tkir quroliga aylanib bormoqda. Bu esa G‘arbdagi har xil siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qilib “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy behayolik, o‘zini boshqalardan yuqori qo‘yish, o‘ta ketgan

xudbinlik g'oyalarini tarqatishni maqsad qilib qo'yib boshqa xalqlarning shu jumladan, o'zbek xalqining ham ko'p ming yillik ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlariga bepisandlik qilib, ulardan voz kechishga undamoqda.

Aslida "ommaviy madaniyat" soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayolik, zo'ravonlik va buzuqlik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham to'g'ri kelmaydi. "Ommaviy madaniyat" iborasi bu mazmunni inkor etayotgani rost. Yoshlar ongidagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan bu "madaniyatlar" ko'plab falokatlarning ibtidosidir [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8].

"Ommaviy madaniyat" degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig'dirolmaydigan ko'plab axloqiy buzuqlik g'oyalari mavjud. Xususan, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir [9, 10, 11, 12].

Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni "madaniyat" deb atalishi, yoyinki, ming yillik ma'naviy qadriyat va an'analarni bepisandlik bilan "eskilik sarqiti" deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an'analar bilan almashtirish ongli insonga xos bo'lmagan odatdir [13, 14, 15].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xususan, bizning zaminimizda tug'ilib o'sgan, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meros bugun ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q [15, 16, 17, 18]. Xalqimizning go'zal ma'naviy qadriyatlarga yo'g'rilgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo kabi tushunchalari hayotimizga singib ketgan. Ayniqsa, otanaga hurmat, ayolga ehtirom, mardlik va jasurlik singari tuyg'ularimiz butun dunyo xalqlarini rom etib keladi.

Buyuk muhaddis bobomiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning "Al-adab al-Mufrad" ("Odob durdonalari") asari hayotimizda juda zarur bo'ladigan odob-axloqqa doir hadislar to'plamidir. "Al-adab al-Mufrad" kitobining nomidan bilinib turibdiki, bu kitobning o'zi odob-axloq, ta'lim-tarbiya haqidadir [19, 20, 21].

Asarda axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan. Asarda keltirilgan hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir [22].

Bundan tashqari, insonning o'zini qanaqa bo'lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur'oni karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi [23].

Hadislarda insonning ma'naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o'z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib etishishida muhim omil – chiroyli xulqli bo'lish deb ko'rsatiladi [24].

Abu Hurayra roziyallohu unhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta Alloh sizlardan uch narsaga rozi bo'ladi va uch narsaga g'azab qiladi: Uning o'zigagina ibodat qilib, Unga hech narsani shirk keltirmasligingizga va Allohning arqonini mahkam tutishingizga, hamda Alloh ishingizga boshliq qilib qo'yganlarga nasihatlashishingizga rozi bo'ladi. Bo'lar-bo'lmas gapni naql qilishib yurmog'ingizga, ko'p savol beraverishingizga va molni noo'rin yerlarga sarf qilib zoye qilmog'ingizga g'azablanadi”, dedilar”[1]. Bu hadisda Allohning g'azabi bo'lar-bo'lmas gaplarni, noma'qul so'zlarni so'zlash, molu dunyosini bekorga badaniga rasm chizdiribmi, fahsh ishlar bilan shug'ullanibmi yoki aqlini ketkazadigan moddalarga sarflab zoye ketkazishga o'xshagan, insoniyat tabiatiga to'g'ri kelmaydigan, o'zlarining tili bilan aytganda “yuksak madaniyat”ga o'xshagan narsalarga bo'lishi ham ifodalangan [25].

Ibn Abbos roziyallohu unhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam Makkadagi uylarining oldida o'tirgan edilar. Usmon ibn Maz'un o'tib qoldi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamga tishini ko'rsatib tabassum qildi. Shunda unga: “O'tirmaysanmi?” – dedilar. Usmon ibn Maz'un: “Xo'p”, – deb o'tirdi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam uning ro'parasiga o'tirdilar. Unga gapirayotib ko'zlarini osmonga tikdilar va: “Hozirgina sen o'tirgan vaqtda Allohning elchisi (Jabroil) mening yonimga keldi”, dedilar. Usmon: “U nima dedi sizga?” – deb so'radi. Rasululloh: “Albatta, Alloh adolatga, ehsonga, qarindoshlarga yaxshilik qilishga amr etdi va fahshu munkar hamda tajovuz (adolatni buzish)dan qaytarur. U sizlarga va'z qilur. Shoyadki eslasangiz”, deb o'sha oyatni o'qidilar. Usmon: “Bu qalbimda iymon

oʻrnashib, Muhammad sollallohu alayhi vasallamni yaxshi koʻrib qolganimda roʻy bergan edi”,-dedi”[2]. Ushbu hadisda koʻrinib turibdiki, fahsh va shunga oʻxshash ishlar, shuningdek, adolatni buzadigan ishlardan qaytargan. Oʻsha madaniyat ahlidanmiz deydiganlar adolat mezonini buzayotganlarini bilishmaydi [26].

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Kim surat chizsa, unga jon puflash taklif qilinadi va azoblanadi. Unga puflay olmaydi. Kim oʻzi koʻrmagan tushni yolgʻondan toʻqib aytsa, unga ikkita sochni ulash taklif qilinadi va azoblanadi. Ikkisining orasini ulay olmaydi. Kim undan qochadigan qavmning gapiga quloq ossa, ikki qulogʻiga qoʻrgʻoshin quyiladi”, dedilar”[3]. Bu ishlar Islom madaniyatiga ham, xalqimiz qadriyatlariga ham toʻgʻri kelmaydi. Bunday nomaʼqul amallar ommaviy madaniyatning ishlaridandir [27].

Abu Hurayra roziyallohu unhu aytdilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Ummatimning yomonlari bekorchi, nojoʻya gaplarni tinmay javraganidir, ummatimning yaxshilari esa eng goʻzal xulqlilaridir”, dedilar”[4]. Bekorchi, behuda gap sotib insoniyatning eng yomoni boʻlib qolishdan saqlanishimiz lozim [28]. Oʻz axloqimiz bilan insoniyatning eng yaxshisi boʻlishimizga harakat qilishimiz kerak.

Ibn Umardan rivoyat qilinadi: “Albatta, hayo bilan iymon bir-biriga qoʻshilgan. Biri koʻtarilsa, ikkinchisi ham koʻtariladi”, dedilar[5]. Hayosi ketgan odamning iymoni, iymon ketgan odamning hayosi koʻtariladi. Iymonli kishi hayoli boʻlishi mumkin. Ommaviy madaniyat koʻchasiga kirganlarning hayosi qoladimikan, balki shu hayosizligi iymonini ham ketkazib qoʻyadi. Oʻzini musulmon degan kishi hech qachon axloqsizlik qilishga yoʻl qoʻymaslikka harakat qilishi lozim [29].

Umuman, insoniyat – odamzot borki, bu dunyoga behudayu bekorga kelgan emas. Alloh taolo ham bu maʼnoni taʼkidlab: “Inson oʻzining (bu dunyo hayotiga) tashlab qoʻyilgan deb oʻylaydimi?”[6]. Yoʻq unday emas, albatta inson bu dunyoga sinov imtihon uchun keladi. Bu sinov va imtihonlar ibodat, yaxshi amallar eng goʻzal odob va ahloqlar orqali namoyon boʻladi [30].

Odob-axloqning avvali ilm boʻlib, u orqali inson zoti oʻzini Robbisini va paygʻambarining xulq-atvorlarini, odobini oʻrganib oʻzining hayotida tatbiq, etgan inson qiyomat kuniga Robbisining rizosiga Rasullulloh sollallohu alayhi vasallamning shafokatlariga muayassar boʻladi va shu bilan birga bu dunyoda Alloh taolo u insonni azizu mukarram qilib qoʻyadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, buyuk muhaddis bobomiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning “Al-adab al-Mufrad” (“Odob

durdonalari”) asarini o‘qib o‘rganish orqali har bir shaxs o‘zida chiroyli odobni, axloqni shakllantira oladi. Bu odob va axloq tufayli baxtu-saodatiga musharraf bo‘ladi. Mana shunday asarlarni mutoala qilib, inson o‘zi qanday hayot kechirishi lozimligini anglab yetadi.

REFERENCES

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab-al-Mufrad. Bayrut. Doru-l-bashoiri-l-islomiya, 1989. –B.158.
2. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in teh spiritual and moral education of children in the family. *PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
3. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 311-317.
4. Otajonovna, K. M., Bakhodirovna, N. M., & Kizi, T. R. N. (2021). Pedagogical bases of the organization of methodical work in professional colleges. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1095-1098.
5. Otajonovna, K. M., & Kizi, A. K. G. (2021). Pedagogical bases of formation of innovative culture of the educator of preschool educational institution. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 457-460.
6. Каримова, М. (2021). Мутахассисни касбий тайёрлаш жараёнини моделлаштириш. *Общество и инновации* 2(8/S), 274-282.
7. Каримова, М., & Годжиев, Х. (2021). Ўқув жараёнини технологик ташкил этиш хусусиятлари. *Общество и инновации*, 2(8/S), 227-233.
8. Рафикова, Д., & Каримова, М. (2021). Ўзбекистон Республикаси олий педагогик таълимидаги модернизацион жараёнларининг меъёрий-ҳуқуқий таъминоти. *Общество и инновации*, 2(8/S), 214-226.
9. Rustamova, N. R. (2020). Development of technology based on vitagenic experience using media resources in higher educational institutions students teaching. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(4), 2258-2262.
10. Rustamova, N. R. (2020). Training of students of cognitive processes based on vitagen educational situations. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8), 869-872.
11. Rustamova, N., & Ismatova, S. (2021). Research Methods of Psychology in Medicine. *Online-Conferences Platform*, 90-93.

12. Inogamova, D. & Rustamova, N. (2020). Using of interactive teaching methods in the process of self-education of future teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(9), 447-454.
13. Rustamova, N. R. (2022). Development of Socio-Cultural Competence. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
14. Рустамова, Н. (2022). Медиатаъсир контекстида талабаларда медиаменталитетнинг шаклланиш боскичлари, *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 130-136.
15. Rustamova, N., & Ismatova, S. (2021). Research Methods of Psychology in Medicine. Online-Conferences Platform, 90-93.
16. Rustamova, N. (2021, March). Clarify os basic concepts of vitagenic education. *In E-Conference Globe* (pp. 177-180).
17. Rustamova, N. R. (2021). Applying Vitagenic Information in Education. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 3), 438-440.
18. Rustamova, N. (2021). Stages of development of media mentality. In *International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development*. (pp. 38-40).
19. Rustamova, N. R. (2014). Media education as development professional formation of the personality. In *European Conference on Education and Applied Psychology* (pp. 170-174).
20. Rustamova, N. R. (2014). Media, media of the theory and media-education. In *Innovations in education* (pp. 122-147).
21. Rustamova, N. R. (2022). Development of Socio-Cultural Competence. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
22. Melievna, M. D., Rustamovna, R. N., Alimdjanovna, A. N., & Rejepbaevna, R. S. (2019). Formation of Creative Competence of Future Teachers in The Process of Teaching Mathematics based on Special Tasks. *International Journal of Engeneering and Advanced Technology*, 9(2), 487-493.
23. Khaydarov, M. E., & Rustamova, N. R. (2020). Siddik Radjabov: Founder of Uzbek Pedagogy. *International Journal of Research*, 9(6), 44-46.
24. Ruzieva, D. I., Rustamova, N. R., Sunnatovich, D., & Tursunov, A. J. K. (2020). The Technology of Developing Media Culture in Higher Educational Students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(09).
25. Rustamova, N. R. VITAGENIC EDUCATION IN A MEDICAL UNIVERSITY. In *Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика*

Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции – знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (р. 423).

26. Rustamova, N. R. (2022, August). VITAGENIC EDUCATION IN A MEDICAL UNIVERSITY: Nodira Rustamovna Rustamova, Senior Lecturer, Department of Uzbek Language and Pedagogy, Faculty of International Education, Tashkent State Dental Institute, email: rustamovanodira19@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

27. Rustamova, N., & Ismatova, S. (2021, November). Research Methods of Psychology in Medicine. In “ONLINE-CONFERENCES” PLATFORM (pp. 90-93).

28. Рустамова, Н. Р. (2021). ВИТАГЕНЛИК БИОЛОГИК ВА ИЖТИМОЙЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 254-256.

29. Qodirov, V. G., & Rustamova, N. (2021). The Man Defining the Epoch: Mamat Haydarov, IARBAS

30. Tursunov, S., & Rustamova, N. (2021). Professor Mamat Haydarov: Science, Management and Youth School. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(7), 602-607.